

Gilamchilik sohasini tasnifga ajratish

Qodirova Mashhura
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy san'atning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan gilamchilik leksikasini tasniflarga ajratish, sohani tasniflarga ajratish tamoyillari tahlil qilindi. Bir qancha rus va o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan tasniflar ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: gilam, kerkin gilami, tasnif, gilam turlari.

Аннотация: В данной статье проанализированы принципы классификации лексики ковроделия, которая является одной из ведущих отраслей прикладного искусства. Рассмотрены классификации, созданные рядом российских и узбекских ученых.

Ключевые слова: ковер, керкин, классификация, виды ковров.

Abstract: In this article, the principles of classifying the lexicon of carpet making, which is one of the leading branches of applied art, were analyzed. Classifications created by several Russian and Uzbek scientists were considered.

Key words: carpet, kerkin carpet, classification, carpet types.

Gilamchilik san'ati amaliy san'atning xalq tarixi sahifalari uning o'tmishi va hozirgi kunini aks ettiruvchi, insoniyat olamining ma'naviy dunyosini o'ziga xos yo'sinda ochib beruvchi alohida tarmog'idir. Gilamchilik san'ati tarixiy va badiiy jihatdan o'zining qadimiy traditsiyalarini izchillik bilan davom ettirib, saqlab kelmoqda. Biroq, san'atning bu turi dastlab paydo bo'lgan davrida qanday bo'lsa, shundayligicha emas, ijodiy qayta ishlangan, takomillashgan, yangi-yangi traditsiyalar bilan boyigan shaklda davom etib kelmoqda. Haqiqatan ham gilamchilik san'ati xalqimizning nozik didi, estetik zavqi, ichki dunyosi, ijoddagi badiiy dunyoqarashlarining uzoq-uzoqlarga borib taqaladigan qadimiy ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtiradigan kollektiv ijod mahsulidir. Gilamchilik leksikasi turli davrlarda turlicha tasnif qilingan. Masalan, olim S. M. Dudin O'rta Osiyo xalqlari gilamlarini tasniflagan. S. M. Dudin barcha O'rta Osiyo gilamlarini uchta katta guruhg'a ajratdi: turkman, o'zbek va qirg'iz. Kerkin tumani ahonisining etnik kelib chiqishi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lмаган S. M. Dudin Kerkin gilamlarini shartli ravishda turkmanlar toifasiga kiritib, kitobxonlar e'tiborini savdogarlar Kerkin gilamlarini o'zbek deb ataganiga qaratgan. S. M. Dudin o'zbek gilamlari tasnifini sezilarli darajada chuqurlashtirib, alohida qabilalar: katagan, qo'ng'irot va mang'it, shuningdek, Samarqand viloyati hududida

yashovchi turli qabila guruhlari o‘zbeklari tomonidan ishlab chiqarilgan Samarqand gilamlarini ajratib ko‘rsatdi. U o‘zbek gilamlari guruhiga Samarqand qoraqalpoqlari va Qarshi dashtlari arablarining mahsulotlarini ham kiritgan, ikkinchisini esa Qarshi deb atagan. Qirg‘iz gilamlari guruhida S. M. Dudin Farg‘ona vodiysi va Sharqi Turkistonning ayrim viloyatlari qirg‘izlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ajratib ko‘rsatib, ayniqsa, qirg‘iz Xidirsha urug‘i mahsulotlarini sifat jihatidan eng yaxshisi deb ta’kidladi.¹ S. M. Dudin gilam buyumlarini yaratuvchilarining kelib chiqishiga ko‘ra yoki mahsulot ishlab chiqarilgan joyiga ko‘ra tasniflagan. 20-asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlarining qabila tarkibi yetarlicha o‘rganilmagan, shuning uchun gilam ijodkorlarining qabilaviy mansubligiga qarab, gilam buyumlarini aniqlash ko‘proq qiyinchiliklar tug‘dirdi. Ayniqsa, Buxoro xonligining janubi-g‘arbiy viloyatlaridagi (avvalgi Turkman SSR Kerkin tumani) turli turkman qabilalari tomonidan tayyorlangan gilamlarning G‘arbiy Yevropada yaqin vaqtgacha aniqlangan tasnifi noto‘g‘ri edi. O‘zbekiston qabilaviy tarkibi va etnik kelib chiqishi jihatidan juda xilma-xil edi, shuning uchun u yerda ishlab chiqarilgan gilam mahsulotlari bir-biridan keskin farq qilar edi. Ularni ishlab chiqarish joyi bo‘yicha aniqlash kerak edi: Bashir, Burdaliq, Charshangan va boshqalar. Bizning fikrimizcha, ilmiy tasniflash gilamlarni yaratuvchilarining kelib chiqishi bilan belgilanadigan turlari bo‘yicha aniqlash tamoyiliga asoslanishi kerak. Biroq, endi bu tamoyilga to‘liq amal qilishning iloji yo‘q, chunki takroriy maxsus tadqiqotlarga qaramay, bir qator hollarda qaysi etnik yoki qabila guruhi ekanligi noma'lumligicha qolmoqda. Turkmaniston savdo va sanoat tashkilotlari tomonidan gilamlarning savdo tasnifini soddalashtirish maqsadida tasniflash geografik belgilarga - gilam ishlab chiqarilgan joyga asoslanadi.

Qadimiy va ilk o‘rta asrlar gilamga oid ma’lumotlar yozma manbalarda saqlangan. Saljuqiylar davrida gilamlar (“ko‘nya”- topilgan joy nomidan) ko‘plab tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga chiqarilgan. O‘rta asrlarda Gilam uch yo‘nalishda rivojlangan:

1. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalarda;
2. O‘troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida;
3. Saroy ustaxonalarida.

Tilimiz leksik qatlamlarini lingvistik tadqiq etish leksik semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti kabi lingvistik bo‘lmagan faqtlar bilan shu qadar

¹Мошкова В. Г., Ковры народов Средней Азии конца XIX-начала XX вв.-Таш., 1970.

zich bog‘liqki, ularni hisobga olmaslik ilmiy tahlilda so‘z ma’no o‘zgarishlarining muhim manbalari va tub sabablaridan birini unutish, e’tibordan chetda qoldirish bo‘lar edi.[2:17] Amaliy san’at leksikasi kasb-hunar leksikasining tarkibiy qismi bo‘lib, buyumlarni bezash, naqsh berish san’ati bilan aloqador bo‘lgan me’morchilik, o‘ymakorlik, gilamchilik, naqqoshlik, kulolchilik miskarlik, zargarlik, to‘qimachilik, zardo‘zlik, do‘ppido‘zlik kabi kasb-kor, san’at tarmoqlari leksikasini o‘z ichiga oladi. Manbalarning ko‘rsatilishicha, O‘rta Osiyoda gilam, sholcha,- palos to‘qish va turli tipdagi naqshli kigiz ishlab chiqarish san’ati chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar faoliyati bilan bog‘liq² bo‘lib, juda uzoq tarixga ega. O‘rta Osiyo xalqlari orasida gilam- palos buyumlaridan keng foydalanish, ularning o‘ziga xos yashash sharoiti, hayot tarzi bilan izohlanadigan qadimiy madaniy traditsiyadir. Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan bu san’at xalqimizning moddiy madaniyat tarixini yoritishda muhim manbalardan sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, gilamchilik juda qadimgi davrlardan paydo bo‘lgan san’at turi hisoblanadi. Gilam to‘qish juda murakkab kasb bo‘lishiga qaramay aholi undan juda unumli foydalangan. Bugungi kunda ham O‘zbekistonda gilamning bir necha turlari yaratilib kelinmoqda. Qadimiy va zamonaviy gilamlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish O‘zbekiston xalqining o‘zgacha urf-odatlaridan biri ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мошкова В. Г., Ковры народов Средней Азии конца XIX-начала XX вв.- Таш., 1970.
2. Н. Маллаев. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти.-Таш., 1974.
3. Tursunova T., Chevarchilik so‘z terminlarining paydo bo‘lish manbalari. Toshkent, 1970

² Н. Маллаев. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти.-Таш., 1974.